Results and Discussion

The findings indicate that students who regularly participated in interactive speaking activities showed noticeable improvement in fluency, vocabulary usage, and pronunciation. Their anxiety levels decreased, and their willingness to speak English increased. These results support previous research emphasizing the effectiveness of communicative and learner-centered approaches.

The study confirms that meaningful interaction and a supportive learning environment are essential factors in improving speaking skills among 6th grade learners.



Conclusion

In conclusion, improving speaking skills in the 6th grades requires the use of communicative, interactive, and learner-centered teaching methods. Teachers should focus on creating a positive classroom atmosphere, encouraging meaningful communication, and providing regular speaking opportunities. Effective speaking instruction at this level not only enhances learners' oral communication skills but also builds a strong foundation for future language learning. Improving speaking skills in the 6th grades is a vital component of effective English language education, as it directly contributes to learners' overall communicative competence. At this stage of learning, students are developing not only their linguistic abilities but also their confidence and willingness to communicate. Therefore, providing systematic and meaningful opportunities for oral interaction is essential for helping learners use English effectively in real-life situations. The findings discussed in this study emphasize the importance of communicative and learner-centered teaching approaches in enhancing speaking skills. Interactive methods such as role-plays, pair and group work, discussions, and language games encourage active participation and increase students' speaking time in the classroom. These activities help learners practice language in meaningful contexts, improve fluency, expand vocabulary, and develop more accurate pronunciation. Additionally, such methods reduce learners' anxiety and create a positive classroom atmosphere where making mistakes is considered a natural part of the learning process.

Furthermore, the role of the teacher is crucial in facilitating the development of speaking skills. Teachers should act as guides and motivators, creating a supportive and encouraging learning environment. Instead of focusing excessively on error correction, teachers should prioritize communication and provide constructive feedback at appropriate stages. This approach helps students build self-confidence and develop a positive attitude toward speaking English.

Overall, effective speaking instruction in the 6th grades requires a balanced combination of appropriate teaching strategies, interactive classroom practices, and emotional support. By implementing communicative methods and fostering a learner-friendly environment, teachers can significantly improve students' speaking abilities and motivation. Ultimately, strengthening speaking skills at this level lays a solid foundation for learners' future academic success and lifelong communication in English.

References

1. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
2. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman.
3. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125–132.
4. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

МОДЕЛИ КОНКУРЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ УНИВЕРСИТЕТОВ В
УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ АСПЕКТ

Менглиева Индира Баходировна,
преподаватель Ургенчского университета
технологий RANCH
menglieva2018@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются модели конкурентного поведения университетов в условиях формирования Нового Узбекистана с акцентом на развитие научно-исследовательской деятельности. Показано, что усиление роли науки и рост конкуренции в системе высшего образования обуславливают необходимость выбора эффективных стратегий развития университетов. Проанализированы нишевые и универсальные (флагманские) модели конкурентного поведения, выявлены их особенности и условия результативности. Обоснована целесообразность дифференцированного подхода к формированию конкурентных стратегий университетов с учетом их научного потенциала и региональных особенностей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, университеты, конкурентное поведение, научные исследования, высшее образование, модели развития.

Формирование Нового Узбекистана сопровождается глубинными преобразованиями в системе высшего образования, направленными на развитие человеческого капитала и укрепление научного потенциала страны. В рамках реализуемых реформ возрастает роль университетов как ключевых центров генерации знаний, проведения научных исследований и внедрения инноваций. Усиление научной составляющей деятельности вузов становится одним из важнейших факторов их конкурентоспособности и устойчивого развития.

Современные университеты функционируют в условиях возрастающей конкуренции за финансовые ресурсы, государственную и грантовую поддержку, высококвалифицированные кадры, а также за позиции в национальных и международных академических рейтингах. В этих условиях конкурентное поведение университетов формируется как совокупность стратегических решений, направленных на создание и развитие устойчивых научно-исследовательских преимуществ. В отличие от коммерческих организаций, конкурентоспособность университетов определяется не только объемом ресурсов, но и качеством научных исследований, публикационной активностью, уровнем международного сотрудничества и степенью интеграции науки с образованием и производством.



Одной из наиболее распространённых форм конкурентного поведения университетов являются нишевые модели, ориентированные на углублённую специализацию в отдельных научных направлениях. Данная модель предполагает концентрацию кадровых, финансовых и инфраструктурных ресурсов в приоритетных областях, что позволяет университетам достигать высокой результативности научных исследований и формировать устойчивые научные школы. В условиях Нового Узбекистана нишевые модели особенно актуальны для региональных университетов, которые, опираясь на отраслевую специфику и потребности региона, способны эффективно использовать ограниченные ресурсы и вносить значимый вклад в региональное развитие.

Наряду с нишевыми моделями важную роль в развитии научно-образовательного пространства Нового Узбекистана играют универсальные (флагманские) модели конкурентного поведения университетов. Эти модели предполагают многопрофильное развитие научной и образовательной деятельности, формирование развитой исследовательской инфраструктуры и активное участие в международных научных проектах. Флагманские университеты выступают центрами концентрации научного потенциала, обеспечивая интеграцию национальной науки в глобальное академическое пространство и способствуя распространению передовых научных и образовательных практик.

Проведённый анализ показывает, что в условиях формирования Нового Узбекистана наиболее эффективным является сочетание различных моделей конкурентного поведения университетов. Дифференцированный подход к стратегическому развитию вузов, учитывающий их научный потенциал, ресурсные возможности и региональные особенности, позволяет обеспечить устойчивое развитие системы высшего образования в целом. Сочетание нишевых и универсальных моделей способствует повышению качества научных исследований, развитию инновационной активности и укреплению конкурентоспособности национальной системы высшего образования.

Список использованной литературы

1. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. — М.: Альпина Паблишер, 2016.
2. Кларк Б. Создание предпринимательского университета. — М.: Изд. дом ВШЭ, 2011.
3. Альтбах Ф., Салми Д. Дорога к академическому превосходству: создание исследовательских университетов мирового класса. — М.: Весь Мир, 2012.
4. Салми Д. Глобальные рейтинги и конкурентоспособность университетов. — *Вопросы образования*, 2019, №2.
5. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28.01.2022 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».



7. Etzkowitz H. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation.
— London: Routledge, 2018.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**ВЛИЯНИЕ ВОЗРАСТНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ НА
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ в ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ
ОТДЕЛАХ ДЕТСКОЙ ШКОЛЫ МУЗЫКИ И ИСКУССТВО
(НА ПРИМЕРЕ СТАНКОВОГО И ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО
ИСКУССТВА)**

Бекбаев Рауф Рустамович Доктор философских
наук(DSc), профессор. Зав.кафедрой

Управления образованием и педагогики TIUE

Мусаева Сурайё Наримановна

Педагог ДШМИ №_15_

Зав. отдела Изобразительного искусство

Магистрант TIUE

surayyomusayeva03@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Художественно творческая деятельность способствует все стороннему развитию людей, даёт им возможность принимать не посредственное участие в создании материальных и духовно нравственных ценностей, приобщиться к национальной культуре. В связи с этим, в последнее время возросло значение эстетического воспитания. Его осуществление неразрывно связано с искусством. Особую актуальность приобретает обучение детей в детских школах музыки и искусство.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Возрастная дифференциация, Детские школы музыки и искусство, изобразительное искусство, станковое и декоративно прикладное искусство.

Детские школы музыки и искусство входят внешкольное обучение, но являются школами. В детских школах музыки и искусство есть музыкальные направления и направление искусство. В музыкальном направлении имеются следующие отделы: отдел фортепиано, отдел струнных инструментов, отдел духовых инструментов, отдел ударных инструментов, вокал и т.п. Продолжительность обучения – 7 лет, занятия проводятся индивидуально.

В направлении «Искусство» имеются следующие отделы: отдел хореографии, отдел театрального искусство, отдел изобразительного искусство — это станковое и декоративно прикладное искусство. Продолжительность обучения-5лет, проводятся групповые занятия. По уставу школы от 5-7 учащихся являются группой. От 4-3 учащихся являются пол группой, чаще всего их добавляют в другие полноценные группы смотря на подразделение младших или старших.

По уставу детских школах музыки и искусство на все направления дети набираются в 1-класс с 6-11 лет. Для того чтобы обучение было более эффективной один из важных аспектов возрастная дифференциация.



В 1-классе одновременно в группе сидят учащиеся разной возрастной категории (6-11 лет) педагогу очень сложно объяснять определённую тему всем одновременно, а также и детям сложно так как восприятие информации детей 6-ти летнего ребёнка и 11-ти летнего несравнимы.

Среди психологических особенностей детей 6-7 лет формируется произвольное внимание, благодаря чему ребёнок способен концентрироваться на неинтересном задании в течение 20-30 минут⁸. В 8-9 лет происходит расцвет творческих поясков ребёнка⁹. Рекомендуются предлагать разнообразные интенсивные творческие занятия: рисование, лепка, аппликации и поделки в компании хорошо влияют на общее психологическое состояние ребёнка, расширяют его познание в области искусства. До 9 лет дети рисуют преимущественно схематично, не стремясь добиться реалистичности изображения. Только в 10 лет появляется желание рисовать идеально, реалистично. Именно в этом возрасте ребёнок видит свои ошибки и не знает, как их исправить, вот тут нужна школа, которая научит грамотному рисунку, живописи, композиции скульптуре.

С 2016-2020 года проводилась реконструкция в рамках государственной программы детских школ музыки и искусство¹⁰. Каждая школа была снабжена новыми инструментами и инвентарём на основании учебной программы.

Для отделов изобразительного искусства были предоставлены ряд гипсовых пособий как геометрические фигуры, розетки разной сложности, капители разных ордеров, гипсовые головы, гипсовые фигуры «Гудона», «Венеры», торс человека, мольберты, столы, стулья, подставки и разные драпировки также бутафория фруктов и овощей для составления интересных натюрмортов на основании утверждённой программы по изобразительному искусству. Наши школы хорошо снабжены и предоставлены все удобства для преподавания грамотного рисунка, живописи, композиции и скульптуры. Но для полноценных и результативных уроков одно из очень важных аспектов это возрастная дифференциация учащихся на этих отделах.

Внедрение принципа возрастной дифференциации в образовательную среду предполагает: разработку ориентированных на определённую категорию возраста образовательных программ и стандартов. Учёба должна быть как родником для учащихся им она должна дать то, что им будет понятно доступно в их возрасте с учётом психологическое развитие.

Целесообразно будет детским школам музыки и искусство в изобразительных отделах принимать детей с 10-13 лет. Именно это возрастная категория позволяет заниматься изобразительным искусством, то есть станковым и декоративно прикладным искусством на более высоком уровне.

⁸ Каминская Н.Н. Психофизиология детей 6-7 лет и создание адаптивной образовательной среды: методическое пособие. – Вологда: ВИРО, 2005. – С.16-18.

⁹ Психология младшего школьника: учебно-методическое пособие. – Екатеринбург, 2018. – С.12-18.

¹⁰ Постановление Президента Республики Узбекистан «О Государственной программе по дальнейшему совершенствованию деятельности детских школ музыки и искусства на 2016-2020 годы» от 20.11.2015 г. № ПП-2435. <https://lex.uz/docs/2821559>.



Педагоги этих школ регулярно повышают профессиональную квалификацию, а также сдают очередную и внеочередную аттестацию. Школы не только в городе, но и по всей республики имеют все возможные ресурсы, чтобы дать знания профессионального уровня. После 5-летнего образования у учащихся будет высокая возможность поступить на высшие образовательные учреждения.

3 апреля 2024 года президент Узбекистана посетил новую детскую школу музыки и искусств №1. Он отметил необходимость повысить качество образования и подчеркнул, что «искусство служит воспитанию духовно богатого поколения». Глава государства поставил задачу усиления взаимодействия между школами искусств, высшими учебными заведениями, театрами и другими культурными учреждениями. Если повысить качество образования в школах искусств, для взаимодействия между школами искусств и высшими учебными заведениями дать преимущество свидетельствам об окончании определённые баллы (30 баллов) при поступлении учащихся на высшие заведения по их направлениям (станковое и декоративно прикладное искусство). Это даёт школе высокий статус и большой спрос на эти направления. И также школа будет предоставлять лучших студентов с базовыми знаниями для высших образовательных заведений

Список использованной литературы:

1. Каминская Н.Н. Психофизиология детей 6-7 лет и создание адаптивной образовательной среды: методическое пособие. – Вологда: ВИРО, 2005. – С.16-18.
2. Психология младшего школьника: учебно-методическое пособие. – Екатеринбург, 2018. – С.12-18.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О Государственной программе по дальнейшему совершенствованию деятельности детских школ музыки и искусства на 2016-2020 годы» от 20.11.2015 г. № ПП-2435. <https://lex.uz/docs/2821559>.



KULINARIYA LEKSIKASI ASOSIDA TALABALARNING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna,
O‘zDJTU katta o‘qituvchisi,
mamatkulovafotima@gmail.com

Kalit so‘zlar: til kompetensiyalari, kulinariya leksikasi, kommunikativ ko‘nikmalar, interaktiv usullar, nutqiy rivojlanish, zamonaviy metodlar.

Annotasiya: Ushbu maqola kulinariya leksikasi orqali talabalarning til kompetensiyalarini (lingvistik, sociolingvistik, diskursiv va strategik) rivojlantirish usullarini o‘rganadi. Nuqtashos darajasidagi o‘quvchilar uchun ovqatlar, reseptlar va kulinariya suhbatlari asosida so‘z boyligi, grammatika va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish samaradorligi tahlil qilinadi. Interaktiv o‘yinlar, rolli o‘yinlar va loyihaviy ishlar orqali tilni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini yuksatish taklif etiladi.[3]

DEVELOPING STUDENTS’ LANGUAGE COMPETENCIES BASED ON CULINARY LEXICONS

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna,
senior teacher at UzSWLU,
mamatkulovafotima@gmail.com

Keywords: language competencies, culinary vocabulary, communicative skills, interactive methods, speech development, modern methods.

Abstract: This article explores methods for developing students’ language competencies (linguistic, sociolinguistic, discursive, and strategic) through culinary lexicons. For students at the intermediate level, it analyzes the effectiveness of forming vocabulary, grammar, and communicative abilities based on food, recipes, and culinary conversations. It is suggested to enhance language application skills in real life through interactive games, role plays, and project-based work.[3]

Kirish

Kulinariya leksikasi talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi, chunki ovqat tayyorlash mavzusi kundalik hayot bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy til o‘qitishda kommunikativ yondashuv ustunlik qiladi, bu esa kulinariya orqali tinglov, gaplashuv, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mavzuga oid leksika talabalarning motivasiyasini oshiradi va uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Kulinariya leksikasi talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi, chunki u kundalik hayot bilan bog‘liq mavzular orqali so‘z boyligini



kengaytiradi. Talabalar ovqatlar, materiallar va jarayonlar nomlarini o'rganib, nafaqat tilni, balki madaniy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Bu usul tilning fonetik, leksik va grammatik tomonlarini birdaniga rivojlantiradi. Bu leksika orqali tinglab, gapirish va o'qish ko'nikmalari shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mavzuga asoslangan darslar talabalarning tilda ishlatish darajasini 30-40% ga ko'taradi.

Bu usul CEFR standartlariga muvofiq til kompetensiyalarini (lingvistik va sosiolingvistik) shakllantiradi. Oliy ta'limda kulinariya loyihalari orqali talabalar mustaqil fikrlash va muhokama qilishni o'rganadilar.[2]

Asosiy qism

1. Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish

Kulinariya leksikasi orqali tinglov va gaplashuv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun resept o'qish va takrorlash mashqlari qo'llaniladi. Masalan, "salat tayyorlash" rolli o'yinida talabalar ingredientlar nomlarini (pomidor, piyoz, sirka) va fe'llarni (aralashtirmoq, kesmoq) mustaqil ishlatadilar. Interaktiv usullar (brainstorming, round-table) kulinariya suhbatlarini faollashtiradi.

O'qish va yozishda resept yozish vazifasi grammatikani mustahkamlaydi. Talabalar o'z reseptlarini qog'ozga tushirib, fidbek oladilar, bu strategik kompetensiyani yuksaltiradi.[1]

2. Lingvistik va sosiolingvistik kompetensiyalar

Lingvistik kompetensiya uchun kulinariya glossariy yaratish (masalan, "oshxona jihozlari": pichoq, qozon) tavsiya etiladi. Juftlikdagi ishlarda talabalar "oshpazlik kitobi"dan iqtiboslarni tahlil qiladilar. Sosiolingvistik jihatda millatlararo reseptlar (plov, manti) muhokamasi odat-odatlar va ifoda farqlarini o'rgatadi.

Keys-stadi usulida "milliy taomlar festivali" ssenariyi talabalarning diskursiv qobiliyatini rivojlantiradi. Venn diagrammasi orqali o'zbek va xorijiy taomlarni solishtirish foydali.

3. Amaliy mashqlar va baholash

Blis-o'yinlarda talabalar 1 daqiqada kulinariya so'zlarini eslatadilar, bu tez fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha: "Mening oila reseptlarim" – prezentasiya va muhokama. Baholashda o'z-o'zini baholash va fidbek shakllari qo'llaniladi.[1]

Texnologiyalar: onlayn resept platformalari (YouTube, Pinterest) orqali tinglov mashqlari.

Xulosa

Kulinariya leksikasi asosida til kompetensiyalarini rivojlantirish talabalarning motivatsiyasi va amaliy qo'llash qobiliyatini oshiradi. Interaktiv metodlar uzoq muddatli natija beradi. Kelajakda raqamli resurslarni kengaytirish taklif etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodjaeva D.I. Til kompetensiyalarini baholash mexanizmlari: O'quv-uslubiy majmualar – BuxDU huzuridagi mintaqaviy markazi, 2021. – 95 b
2. Kasimova R.R. Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari: O'quv-uslubiy majmualar – BuxDU huzuridagi mintaqaviy markazi, 2021. – 107 b.
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Shet tillari oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.



MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAXSNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MODELI

Karimjonova Saodat G'opirjanovna

Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv
va Texnologiya universiteti

Kirish: Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, avvalo, barkamol shaxsni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Shaxs tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur qadriyatlarni hisobga olgan holda pedagogik model ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlar, an'analari, tili va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxsda vatanparvarlik, milliy g'urur, o'zlikni anglash kabi fazilatlarni shakllantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, tinchlik, adolat, bag'rikenglik, mehr-shafqat kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni

Milliy qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy boyliklar bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy poydevorini tashkil etadi. O'zbek xalqining mehmondo'stlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlari shaxs tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha millat va elatlar uchun umumiy bo'lib, insoniyat taraqqiyotining asosiy mezonlari hisoblanadi. Mazkur qadriyatlar shaxsni global fikrlashga, boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Pedagogik modelning mohiyati

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalashning pedagogik modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natija. Modelning asosiy maqsadi — ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdir.

Mazkur modelda tarbiya jarayoni tizimli va uzluksiz tarzda tashkil etiladi. Ta'lim muassasasi, oila va jamiyat hamkorligi ta'minlanadi. Pedagogik jarayonda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, munozara va loyihaviy faoliyatdan foydalanish tavsiya etiladi.

Tarbiya jarayonida modelni amalga oshirish

Pedagogik modelni amaliyotga joriy etishda o'qituvchining kasbiy mahorati va shaxsiy namunalari muhim o'rin tutadi. O'qituvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z faoliyatida uyg'unlashtira olishi zarur.



Shuningdek, tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy loyihalar va madaniy tadbirlarni tashkil etish shaxs tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalashning pedagogik modeli ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu model shaxsda yuksak ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Karimjonova Saodat G'opirjanovna
Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv
va Texnologiya universiteti.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini individuallashtirish, bilimlarni chuqur tahlil qilish, o'quvchilarning qobiliyat va ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt va ta'lim jarayoni

Sun'iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aql-zakovati faoliyatiga xos bo'lgan tahlil qilish, o'rganish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarish qobiliyatidir. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llanilmoqda:

- adaptiv o'qitish tizimlari;
- aqlli test va baholash platformalari;
- virtual tutor va chat-botlar;
- o'quvchilar faoliyatini tahlil qiluvchi analitik tizimlar;
- masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlovchi platformalar.

Adaptiv ta'lim tizimlari sun'iy intellekt asosida har bir o'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish tezligi va qiziqishlariga mos ravishda individual o'quv rejasini shakllantiradi. Bu esa an'anaviy ta'limdagi "barchaga bir xil yondashuv" muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlar

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini quyidagi jihatlar orqali oshiradi:

Birinchidan, **individuallashtirilgan ta'lim** amalga oshiriladi. Har bir o'quvchi o'z bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajaradi, bu esa bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, **baholash jarayoni avtomatlashtiriladi**. SI asosidagi tizimlar test natijalarini tez va xolis baholaydi, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi.



Uchinchidan, **o'qituvchilar yuklamasi kamayadi**. Sun'iy intellekt rutinali ishlarni (tekshirish, statistik tahlil) o'z zimmasiga oladi, o'qituvchi esa ko'proq metodik va ijodiy faoliyatga e'tibor qaratadi.

To'rtinchidan, **ta'lim sifati monitoringi yaxshilanadi**. O'quvchilarning faolligi, o'zlashtirish darajasi va muammoli jihatlarini real vaqt rejimida tahlil qilinadi.

Sun'iy intellektdan foydalanishdagi muammolar

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud:

- texnik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- malakali kadrlarning yetishmasligi;
- ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayotni himoya qilish masalalari;
- o'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli savodxonligi darajasi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv, ya'ni normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, pedagoglarni qayta tayyorlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. U ta'lim jarayonini individuallashtirish, sifatni oshirish va zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Kelajakda sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi roli yanada kengayib, raqamli ta'lim ekotizimining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan holda joriy etish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАРРАҚАМЛИ ЭВОЛЮЦИЯ: СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТ ВА ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ

Соҳибхон Зокиров

“Diplomat University” профессор – ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада сунъий интеллект (СИ) технологияларининг глобал иқтисодиёт ва ижтимоий соҳалардаги ўрни тизимли таҳлил қилинади. Тадқиқотда етакчи давлатларнинг СИ соҳасидаги рақобати, хусусан, Хитой, АҚШ ва Ўзбекистоннинг ривожланиш динамикаси кўриб чиқилган. Шунингдек, СИнинг тиббиёт, таълим ва экология соҳаларидаги амалий аҳамияти ҳамда унинг меҳнат бозори ва инсон онгига таъсири билан боғлиқ экзистенциал хавфлар ёритилган.

Калит сўзлар: Сунъий интеллект, рақамли иқтисодиёт, тиббий диагностика, “яшил” технологиялар, киберхавфсизлик, трансформация.

Инсоният тарихи – бу аслида воситалар ва қуроллар яратиш тарихидир. XXI аср бошига келиб, инсон ўзи яратган энг мураккаб аъзоси – интеллектнинг нусхасини яратишга киришди. Бугунги кунда сунъий интеллект (СИ) нафақат технология, балки «рақамли онг» эволюциясининг бошланғичи сифатида намоён бўлмоқда. СИ технологиялари инсон меҳнатини эмас, балки инсон фикрини алмаштира олиш салоҳияти билан Тўртинчи саноат инқилобининг якуний нуктаси ёки янги бир даврнинг бошланиши сифатида баҳоланмоқда.




Глобал иқтисодий кўрсаткичлар ва прогнозлар СИ бозоридаги геосиёсий рақобат бугунги кунда давлатларнинг миллий хавфсизлик даражасига кўтарилган. Таҳлилларга кўра, 2026 йилга бориб Хитой (82%) ва АҚШ (80%) иқтисодиётида СИ улуши энг юқори кўрсаткичга чиқиши кутилмоқда. Ҳиндистоннинг ўсиш суръатлари ҳам диққатга сазовор бўлиб, у 2026 йилга



келиб 74% га етиши ва Европа Иттифоқини (62%) ортида қолдириши прогноз қилинмоқда.

Ўзбекистон иқтисодиётида ҳам СИ жадал суръатлар билан кириб келмоқда. Банк тизимидаги “Face ID” ва тиббиётдаги диагностик алгоритмлар бунинг яққол мисолidir. 2021 йилда 8% бўлган СИ улуши 2026 йилга келиб 36% га етиши кутилмоқда. Умумий ҳисобда, 2030 йилга келиб СИ жаҳон иқтисодиётига 15,7 трлн доллар қўшимча ҳисса қўшиши прогноз қилинган.

Сининг соҳалар кесимида татбиқ этилиши Сининг турли тармоқлардаги



иштироки экспоненциал ўсиш босқичида. Айниқса, АТ ва Маркетинг соҳалари 2026 йилга келиб деярли тўлиқ СИ назоратига ўтиши кутилмоқда.

Тиббиёт: СИ диагностика аниқлигини оширувчи стратегик ҳамкорга айланди. Масалан, Google алгоритми кўкрак беги саратонини аниқлашда "ёлғон ижобий" натижаларни 5,7% га камайтирган. Янги дори воситаларини яратиш жараёни (масалан, фиброзга қарши дори) СИ ёрдамида 5-8 йилдан 46 кунгача қисқарди.

Таълим: СИ таълимни индивидуаллаштириш орқали математика каби фанларни ўзлаштириш кўрсаткичини 30% га оширди.

Экология ва иқтисодиёт: Amazon ва Alibaba каби гигантлар логистика харажатларини 15-20% га камайтирган бўлса, "ақлли фермерлик" технологиялари кимёвий моддалар сарфини 90% гача тежаш имконини бермоқда.

Хавф-хатарлар ва этик муаммолар СИ ривожини билан бирга бир қатор муаммолар ҳам кун тартибига чиқмоқда. Биринчи навбатда, меҳнат бозорининг қайта қурилиши натижасида Call-center, таржимонлик ва график дизайн каби такрорланувчи иш ўринлари хавф остида қолмоқда. Иккинчидан, "Deepfake" технологиялари орқали дезинформация ва манипуляция қилиш хавфи ортмоқда.

Энг муҳим муаммолардан бири — "рақамли амнезия" бўлиб, инсон мияси маълумотни сақлаш функциясини СИга топшириши натижасида хотира ва мустақил қарор қабул қилиш қобилияти сусайиши мумкин.



Сунъий интеллект — Инсониятнинг охириги иштирокидаги ихтироси бўлиши мумкин, чунки кейинги барча кашфиётлар инсон ва СИ симбиозиди амалга оширилади. Келажакдаги асосий кўникма — СИга тўғри савол бера олиш ("Prompt Engineering") ва маълумотларни саралаш учун "Танқидий фикрлаш"дир. Агар биз ушбу қудратли кучни инсон кадр-қиммати ва адолат йўлида йўналтира олсак, у янги уйғониш даврига йўл очади. Зеро, асосий интеллект ҳали-ҳамон инсондадир



ТЕМИР YO‘L TRANSPORTI INFRATUZILMASINING HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH USLUBIYOTI VA TIZIMINI JORIY ETISH ASOSIDA POYEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH

Abduraxmanov A‘zam Abdulxayevich

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchi,

E-mail: Azam4579494@mail.ru

Annotatsiya: Jahonda temir yo‘l transporti infratuzilmasining texnik va texnologik imkoniyatlarini rivojlantirish, harakat xavfsizligi talablari buzilish oqibatlarini bartaraf etish usullarini tanlash va texnik-iqtisodiy baholash usullarini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, temir yo‘l stansiyadagi poyezdlar harakat va manyovr ishlarida harakat xavfsizligini buzilish holat va tasniflari asosida hodisalarning sodir etish xavf darajalari aniqlash va harakat xavfsizligini ta‘minlashning baholash tizimini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar hozirgi kunda dolzarb hisoblanmoqda. Shu bilan birga xavf darajalarini yordamida temir yo‘l infratuzilma obyektlari holatini kompleks baholash mezonlarining matematik modelini ishlab chiqish va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishini hisobga olgan holda infratuzilmalarni holatini kompleks baholash uslubiyotini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu ilmiy maqolada ushbu vazifalarni amalga oshirishda, axborot texnologiyalari asosida temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashni masofadan doimiy nazorat qilish asosida temir yo‘l infratuzilma obyektlari holatining kompleks baholash tizimini ishlab chiqishda takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Temir yo‘l transporti infratuzilmasi, harakat xavfsizligini ta‘minlash, axborot texnologiya, poyezd, manyovr, texnik, texnologik, stansiya.

Abstract: Worldwide, significant attention is being paid to the development of the technical and technological capabilities of railway transport infrastructure, the selection of methods to eliminate the consequences of violations of railway traffic safety requirements, and the improvement of methods for their technical and economic assessment. In this context, research aimed at identifying risk levels of incidents based on the types and classifications of safety violations during train movements and shunting operations at railway stations, as well as developing a system for assessing traffic safety assurance, is currently of high relevance. At the same time, one of the urgent tasks is to develop a mathematical model of criteria for the comprehensive assessment of the condition of railway infrastructure facilities based on risk levels, and to improve the methodology for comprehensive condition assessment of infrastructure facilities while taking into account violations of transportation safety requirements. This scientific article proposes solutions to these tasks by suggesting the development of a comprehensive assessment system for the condition of railway infrastructure facilities based on continuous remote monitoring



of freight and passenger transportation safety on railways using information technologies.

Keywords: Railway transport infrastructure, traffic safety assurance, information technology, train, shunting, technical, technological, station.

Dunyoni yetakchi mamlakatlarida transportda harakat xavfsizligini ta'minlash sifatini nazoratini amalga oshirish sohasiga raqamli texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab keskin ortmoqda. Shu munosabat bilan tashishlarni tashkil etish usullariga komissiyaviy chora-tadbirlarni tatbiq qilish asosida transport infratuzilmasining holatini kompleks baholash tizimini joriy etish hamda poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash usullarini izlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahondagi rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarning temir yo'l transportida harakat xavfsizligi hodisalarining 70% inson omiliga to'g'ri kelishini hisobga olsak¹¹, infratuzilmaning texnik va texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, tashishlar xavfsizligi talablarining buzilish holat va tasniflarining oqibatlari asosida huquqbuzarlikning sodir etish xavf darajalari bo'yicha harakat xavfsizligini ta'minlashning kompleks yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, temir yo'l transportida poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish, tashishlar xavfsizligi buzilish holatlarini bartaraf etish hamda temir yo'l transporti infratuzilma obyektlari holatini xavf darajalarini kompleks baholashda texnik iqtisodiy xarajatlarni minimallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Temir yo'l transporti infratuzilmasining holatini kompleks baholash uslubiyoti va tizimini joriy etish asosida poyezdlar harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, universitetlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Respublikamizda ham transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish asosida harakat xavfsizligi talablarining buzilishini qisqartirishga imkon beradigan resurstejamkor usullar va zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda intellektual tizimlar ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar amaliyotga joriy etilmoqda.

Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi ta'minlashning zamonaviy holati bo'yicha umumiy foydalanishdagi temir yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashnishi va uni tahlili hozirgi kundagi holati, temir yo'l transportida xavfsizlikni boshqarish tizimlari bo'yicha jahon tajribasi tahlili, temir yo'l transportida harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil qilinib, o'rganilishi hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda sodir bo'lgan harakat xavfsizligi buzilish hodisalarining temir yo'l stansiyasining texnologik ish jarayoniga bog'liqligi hamda unda inson omilining ta'sirining tahlillari amalga oshirildi. Natijada, poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish temir yo'l transporti infratuzilmasining holatini kompleks baholash uslubiyoti va tizimini joriy etish usullarini izlashni talab qiladi.

¹¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-bezopasnosti-truda-na-zheleznodorozhnom-transporte>



Temir yo‘l transportida infratuzilmani komissiyaviy ko‘rikdan o‘tkazish texnologiyalari temir yo‘l infratuzilmasining texnik holati poyezdlar harakati xavfsizligi va ekspluatatsion samaradorlikning asosiy omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslanish zarur. Infratuzilma elementlarining nosozligi poyezdlar harakat grafigining buzilishi, temir yo‘l stansiyalarida harakat tarkiblarning me‘yordan ortiq turib qolishi hamda tashish jarayonlarining samarasiz tashkil etilishiga olib kelishi aniqlandi. Shu sababli infratuzilmani komissiyaviy ko‘rikdan o‘tkazish tizimini takomillashtirish harakat xavfsizligini ta‘minlashning muhimligi ko‘rib chiqildi. Amaldagi (an‘anaviy) komissiyaviy ko‘rik texnologiyasining asosiy kamchiliklaridan biri bu qog‘oz shaklida yuritilishidir. Xususan, qog‘oz hujjatlar asosida ishlash, ma‘lumotlarni qayta ishlashning sustligi va inson omiliga yuqori darajada bog‘liqlik ko‘rik jarayonining vaqt sarfini oshirishi hamda xatoliklar ehtimolini ko‘paytirishi olib keladi. Bu holat poyezdlarning texnik stansiyalarda turish vaqtini uzaytirib, uchastka tezligining pasayishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Raqamlashtirilgan komissiyaviy ko‘rik texnologiyasining konseptual afzalliklari asoslanib, raqamli axborot tizimlari, markazlashgan ma‘lumotlar bazasi va real vaqt rejimidagi monitoring vositalaridan foydalanish infratuzilma holatini baholashda aniqlik va shaffoflikni ta‘minlashi, inson omilini kamaytirishi va xavfli holatlarni erta aniqlash imkonini beradi.

An‘anaviy va raqamli texnologiyalar solishtirma tahlil qilinganda, tahlil natijalari, raqamli texnologiya ko‘rik o‘tkazish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi, ma‘lumotlar aniqligini oshirishi, hisobotlarni avtomatik shakllantirish imkonini yaratishi hamda harakat xavfsizligi darajasini yuqoriroq pog‘onaga olib chiqishi aniqlandi. Bu esa temir yo‘l infratuzilmasini boshqarishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Komissiyaviy oylik ko‘rik texnologiyalarining temir yo‘l stansiya ish ko‘rsatkichlariga ta‘siri statistik va korrelyatsion usullar yordamida baholanib, tadqiqotlar texnologik buzilishlar, texnik vositalar nosozligi va poyezdlar kechikishlari o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tranzit qayta ishlanadigan poyezdlarning texnik stansiyalarda turib qolish vaqti infratuzilma holatini baholash sifati bilan bevosita bog‘liqligi aniqlanib, raqamli texnologiyani joriy etishning texnik-iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini ta‘minlash tizimini tadqiq qilishda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishini tasniflash va ularni mezonlashga doir talablar, xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarning ro‘y berish ehtimoli asosida xavfsizlik holatining darajasi tadqiq qilinib hamda harakat xavfsizligini baholashning matematik modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida inson omilining ta‘siri tufayli temir yo‘l stansiyasi ishining texnologik jarayonida yuzaga kelgan xavflar tahlil qilinib va baholandi. Tadqiqot doirasida temir yo‘l uchastkalaridan poyezdlarni barqaror o‘tkazishda harakat xavfsizligiga mezonlarida keltirilgan ko‘rsatkichlariga ta‘siri qiyosiy tahlil qilinib, baholandi. Natijada, temir yo‘ldan foydalanish ish ko‘rsatkichlariga ta‘siriga ko‘ra uchastkada turli toifadagi poyezdlar harakatini tashkil etish texnologiyalarini tatbiq etish, baholash va taqqoslash, ularni qo‘llash doirasini belgilash amalga oshirildi.



Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi darajasini baholashda temir yo‘l transportida poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarni baholash, harakat xavfsizligi ta‘minlash maqsadida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish, temir yo‘l stansiyasida poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlashning kompleks baholash tizimini iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Turli toifadagi poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlashda xavflarni sodir bo‘lish ehtimoli, xavflarni darajasi, xavflar soni, stansiyalardagi texnologik amallar va boshqa omillarga bog‘liqdir. Bu omillar asosida ushbu poyezdlar xavfsizligini ta‘minlashning kompleks baholash tizimi ko‘p mezonli optimallashtirish tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Tadqiqot doirasida temir yo‘l transportida harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishini hisobga olgan holda infratuzilmalarni holatini kompleks baholash tizimining iqtisodiy-matematik modeli takomillashtirildi. Natijada, poyezdlar halokati, avariya yoki ishdagi alohida hodisalar orqali vagon, lokomotiv, SMB va aloqa vositalari, yuklarga yetkazilgan zararlar ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda aniqlashga erishildi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati temir yo‘l infratuzilmalarida harakat xavfsizligi buzilishi bilan bog‘liq hodisalarning xavflilik darajalarini aniqlash, tashishlar xavfsizligini oshirishga yo‘naltirilgan harakat xavfsizligini ta‘minlash texnologiyalarining muqobil variantlarini taqqoslash usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati temir yo‘l infratuzilmalarida yuzaga keladigan harakat xavfsizligi buzilishining oshishini hisobga olgan holda komissiyaviy oylik ko‘rik tizimini qo‘llash orqali tashish xavfsizligi yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Temir yo‘l transporti infratuzilmasining holatini kompleks baholash uslubiyoti va tizimini joriy etish asosida poyezdlar harakat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo‘l transportida poyezdlar harakati va manyovr ishlaridagi nuqsonlarni baholash tizimi asosida huquqbuzarlik sodir etish xavf darajalarini aniqlash, poyezdlar harakat xavfsizligini ta‘minlashning baholash tizimi sanoat korxonalariga joriy etildi. Natijada, temir yo‘l transporti infratuzilmalaridagi xavflarni aniqlash, xavflarni bartaraf etishda inson omilini kamayishiga erishildi;

temir yo‘l infratuzilma obyektlari holatini belgilovchi mezonlarning matematik modeli hamda tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq normativ hujjatlar talablarini bajarmasligini hisobga olgan holda infratuzilmalarni holatini ko‘rsatuvchi iqtisodiy-matematik uslubiyati sanoat korxonalariga joriy etilgan. Natijada, harakat xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalar kamaytirishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni, 2024-yil 27-noyabrda O‘RQ-1006-son.

2. Оленевич В.А. Методическое и программное обеспечение анализа и прогнозирования безопасности функционирования подсистем железнодорожного транспорта: Диссертация кандидат технических наук. Иркутск: ИрГУПС. – 2014. – 180 с.



3. Олинович Н.А. Разработка методов оценки уровня безопасности как механизма повышения качества перевозок: Диссертация кандидат экономических наук. Иркутск: ИрГУПС. – 2014. – 156 с.
4. Максимова И.Н. Повышение эффективности организации поездной работы с учетом надежности восприятия распоряжений: Диссертация кандидат технических наук. Екатеринбург: УрГУПС. - 2013. – 121 с.
5. Jumayev SH.B. Vagonlar oqimini tashkil etishda axborot texnologiyalari asosida transport jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish: Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: TDTU, – 2021. – 162 b.
6. Baratov D.X. Temir yo'l avtomatika va telemexanika qurilmalarini hujjatlashtirishning avtomatlashtirish vositalarini yaratish ilmiy asoslarini takomillashtirish. Texnika fanlari doktori (DsC) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: TDTU, – 2019. – 68 b.
7. Masharipov M.N. Poyezd lokomotivlari ekspluatatsiyasi transport jarayonlarining innovasion texnologiyalari: Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: TTYMI, - 2019. - 177 b.
8. Xusenov O'.O', Suyunbayev SH.M., Xudayberganov S.K., To'xtaxodjayeva M.M. Temir yo'l stansiyasi infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli // Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. - 2022. - 3-son. - S. 101-116.



VIZUAL BOSHQARUV: ISHLAB CHIQARISHDA SHAFFOFLIK VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH

Boykishiyeva Dilnozaxon Abdusalomovna

Andijon davlat texnika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur tezisda ishlab chiqarish jarayonlarida vizual boshqaruv tizimini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash va isroflarni kamaytirish masalalari yoritilgan. Vizual boshqaruv ishlab chiqarish holatini real vaqt rejimida kuzatish, jarayonlardagi og'ishlarni tezkor aniqlash hamda xodimlarning jalb etilganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: vizual boshqaruv, ishlab chiqarish jarayoni, shaffoflik, isroflarni kamaytirish, sifat boshqaruv tizimi, samaradorlik, jarayonni nazorat qilish, ishlab chiqarish intizomi

Vizual boshqaruv – ish jarayonlari, ko'rsatkichlar va xavf-nuqtalarni ko'zga yaqqol, bir qarashda tushunarli ko'rinishda taqdim etish orqali ishlab chiqarishni boshqarish usulidir. Ushbu tezisda vizual boshqaruvning asosiy tamoyillari, isroflarni (kutish, ortiqcha zaxira, ortiqcha ishlov, keraksiz harakat, transport, ortiqcha ishlab chiqarish, nuqson) qisqartirishdagi roli, hamda korxonada joriy etish bo'yicha amaliy yo'l-xarita yoritiladi. Taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi (OEE, tsikl vaqti, nosozliklar soni, WIP, yetkazib berish aniqligi, andon chaqiruvlari tezligi) va vizual vositalar (ish joyi belgilash, “soya taxta”, rang kodlari, kanban, andon paneli, standart ish kartalari) yordamida shaffoflik oshiriladi, muammolar erta aniqlanadi va qaror qabul qilish tezlashadi. Natijada jarayon barqarorligi kuchayadi, sifat xatolari kamayadi va mahsuldorlik ortadi.

Zamonaviy ishlab chiqarishning asosiy muammolaridan biri — jarayonlarning ko'rinmasligi: ma'lumotlar tarqoq, ko'rsatkichlar kechikib keladi, muammolar esa faqat nuqson chiqqanidan keyin bilinadi. Natijada ortiqcha ishlab chiqarish, kutish, keraksiz harakat va ortiqcha zaxira kabi isroflar jamlanib boradi, buyurtmalarni bajarish muddati cho'ziladi, sifat barqarorligi esa pasayadi. Ko'p korxonalarda standart ish yozma shaklda mavjud bo'lsa-da, u ish joyida ko'zga tashlanmaydi; asbob-uskunalar joylashuvi va oqim yo'laklari belgilari eskirgan yoki umuman yo'q. Bularning barchasi ustaxonalarda “nima, qayerda, qay holatda” degan savollarga tez javob topolmaslikka olib keladi.


Raqobat kuchaygan, yetkazib berish zanjirlari qisqarayotgan va mijoz talabi o'zgaruvchan sharoitda shaffoflik — operativ boshqaruvning tayanchi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun muddat, sifat va xavfsizlik talablariga izchil rioya qilish zarur. Shu nuqtai nazardan, vizual boshqaruv (ish joyini belgilash, rang kodlari, “soya taxtalar”, andon signallari, kanban kartalari, kundalik KPI taxtalari) jarayon holatini “bir qarashda” anglash imkonini beradi: og'ishlar darhol ko'rinadi, sabablar tez topiladi, tuzatish choralari javob vaqti qisqaradi.



Vizual boshqaruv 5S intizomi va standart ishni ish joyining o'zida ko'rsatish orqali xodimlarni jarayon markaziga qo'yadi: kim, qachon, niman va qanday bajarishi aniq ko'rinadi. Bu usul nafaqat isroflarni kamaytiradi, balki mehnatni muhofaza qilish belgilarini yangilash, xavf zonalarini aniq ajratish orqali xavfsizlik madaniyatini ham mustahkamlaydi. Raqamli panellar va sensorlar (elektron kanban, real vaqt OEE) bilan uyg'unlashganda, vizual boshqaruv ISO talablari va ichki auditlarga tayyorgarlikni yengillashtiradi, rahbariyatga dalillarga asoslangan qarorlarni tez qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bois vizual boshqaruv bugungi sharoitda ishlab chiqarishda shaffoflikni ta'minlash va isroflarni barqaror ravishda qisqartirishning eng samarali yondashuvlaridan biri hisoblanadi.

Vizual boshqaruv Yalpi yo'qotishlarni kamaytirish (Lean) va Toyota ishlab chiqarish tizimi (TPS) tamoyillariga tayanadi: oqimni tekislash (heijunka), o'z vaqtida yetkazish (takt + tortish), hamda jidoka (nosozlikda darhol to'xtatish). Maqsad — isroflarni ko'rinadigan qilish va muammoga zudlik bilan javob berish.

Vizual nazorat — ish joyida jarayon holati, xavfsizlik, tartib va me'yoriy og'ishlarni **bir qarashda** anglatib beruvchi ko'rgazmali belgilar va vositalar majmui. Maqsad — xodimga “nima qayerda, qaysi holatda va keyingi qadam nima?” savollariga tez javob berish, isroflarni (kutish, qidirish, keraksiz harakat, ortiqcha zaxira) kamaytirish.



1-rasm. Ishlab chiqarishni ranglar bilan belgilash

Vizual nazoratning quyidagi darajalari mavjud:

